

## KORXONALAR FAOLIYATIGA IMVESTITSIYALARNI JALB ETISHDA FOND BIRJASINING ROLI

Jo'rayev Dilshodbek Komiljonovich

Termiz davlat universiteti

Iqtisodiyot va turizm fakulteti

Moliya va moliyaviy texnologiya ta'lif yo'nalishi 3-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12657115>

*Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalar, fabrikalarning va xususiy tashkilotlarning davlat iqtisodiyotiga va davlat budgetiga keltirayotgan foydalarini oshirish, shuning bilan bir qatorda bunday korxonalar faoliyatini yanada yaxshilash va ularga berilgan imkoniyatlarni yanada oshirish maqsadida investitsiyalar kiritishning samaradorligi haqida bir qancha fikrlar yuritilgan.*

**Kalit so`zlar:** Xususiy va davlat korxonalari faoliyati, investitsiya, fond birjasi, investitsiyalarni jalgan qilish usullari.

## THE ROLE OF THE STOCK EXCHANGE IN ATTRACTING INVESTMENTS TO THE ACTIVITIES OF ENTERPRISES

*Abstract. In this article, there are several ideas about the effectiveness of investments in order to increase the benefits of enterprises, factories and private organizations to the state economy and the state budget, and at the same time to further improve the activities of such enterprises and to further increase the opportunities given to them.*

**Key words:** Activities of private and state enterprises, investment, stock exchange, methods of investment attraction.

## РОЛЬ ФОНДОВОЙ БИРЖИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ

*Аннотация. В данной статье представлено несколько идей об эффективности инвестиций с целью увеличения выгоды предприятий, фабрик и частных организаций для государственной экономики и государственного бюджета, и в то же время для дальнейшего совершенствования деятельности таких предприятий и повышения эффективности инвестиций. еще большие увеличить предоставляемые им возможности.*

**Ключевые слова:** Деятельность частных и государственных предприятий, инвестиции, фондовая биржа, методы привлечения инвестиций.

## KIRISH

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida milliy iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi va jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi ko'p jihatdan to'g'ri va asoslangan investitsiya siyosatiga bog'liqdir. Mamlakatimizda investitsion faoliyatni iqtisodiy muhit shart-sharoitlariga muvofiq rivojlantirish, ularni jamiyat iqtisodiy hayotining barcha jabhalaridagi faolligini ta'minlash, milliy ishlab chiqarish jarayonining modernizatsiyalashuvi hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omillaridan biri bo'lib kelmoqda. Shuning uchun ham hukumatimiz tomonidan har yili amalga oshirilib kelinayotgan islohotlarning kun tartibidagi asosiy

masalalaridan biri bo'lib, investitsiyalarni mamlakat milliy iqtisodiyotiga jalb qilish masalasi turibdi.

Moliya bozori - bu bozor moliya resurslari, ya'ni pul va pulga tenglashtirilgan qog'ozlar bozoridir va shu bilan bir qatorda, moliya tizimini ajralmas qismi hisoblanadi. Bunda oldi-sotdi qilinadi, pul mablag'larining talab va taklifga qarab, erkin harakati ta'minlanadi. Moliya bozorida firmalar, moliya muassasalari, davlat va aholi qatnashadi. Moliya bozori keng ma'noda pul bozori, kapital bozori, investitsiya bozori, qimmatli qog'ozlar bozori, valuta bozori, sug'urta bozori va boshqalami birlashtiradi.

Moliya bozorining asosiy vazifasi ishlab chiqarishni tashkil etish va kengaytirish maqsadida investorlardan pul jalb qilishdir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat organlarining tartibga solish va nazorat qilish faoliyatjisiz moliya bozorining samarali ishlashi mumkin emas.

Moliya bozorini (ayniqsa qimmatli qog'ozlar bozorini) shakllantirish sharoitida bunday tuzilmalarning ishlashi alohida ahamiyatga ega.

Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishning asosiy yo'li bu fond birjalar faoliyatini yo'lga qo'yish va rivojlantirishdir.

Fond birjasi bu – qimmatli qog'ozlar savdosiga mo'ljallangan uyushgan bozor. Bu qimmatli qog'ozlar xaridori hamda sotuvchisi uchrashadigan joy.

«Toshkent» Respublika fond birjasi - O'zbekiston Respublikasi hududidagi yagona fond birja. U 1994-yil 8-aprelda tashkil etilgan. Hozirda u yerda 99 ta kompaniya o'z aksiyalari va 4 ta emitent (aksiya chiqaradigan kompaniya) o'z obligatsiyalari bilan savdo qiladi.

Ro'yxatga olingan qimmatli qog'ozlar birjalarga joylashtiriladi, u yerdan ularni jismoniy va yuridik shaxslar - investorlar xarid qilishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi – qimmatli qog'ozlarni saqlash, yuritish, harakatini hisobga olish yagona tizimini ta'minlaydigan hamda boshqa turdosh xizmatlarni ko'rsatadigan tashkilot. (Markaziy depozitariy o'z faoliyatini Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 21 maydagi 263-sonli "Qimmatli qog'ozlarning markaziy depozitariysini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, majburiy litsenziyalashsiz amalga oshiradi.

Fond birjasi - qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy vositalar oldi sotdi qilinadigan birja; pul kapitali harakatiga xizmat ko'rsatadigan moliya bozorining dastaklaridan biri. Bozor infratuzilmasining muhim bo'g'ini, qimmatli qog'ozlar (davlat obligatsiyalari, korxonalar aksiya va obligatsiyalari, bank kredit biletlari, tijorat veksellari), valyuta oldi sotdisi bo'yicha muntazam va tashkiliy faoliyat ko'rsatadi.

Fond birjasining asosiy vazifalari: bo'sh turgan pul va qimmatli qog'ozlarni sotishni tashkil etish orqali jamg'arilgan pul kapitalini safarbar etish va to'plash; xususiy xo'jalik sub'yektlari va davlat investitsiyalarini ularning qimmatli qog'ozlari xaridini tashkil etish yo'li bilan moliyalashtirish; qimmatli qog'ozlarning yuqori darajadagi likvidligini, ya'ni qimmatli qog'oz egalari uchun yo'qotishlarsiz tezda pul mablag'lariga aylanishini ta'minlash. Huquqiy maqomiga ko'ra, jahon amaliyotida doimiy davlat nazoratida faoliyat ko'rsatadigan yalpi huquqiy, aksiyadorlik jamiyatlari shaklidagi xususiy va davlat kapitali ishtirokidagi aralash Fond birjasi turlari bor.

Fond birjaning boshqa Yevropa mamalakatlari bilan aloqlari, investorlar sonining yanada ko'payishiga katta hissa qo'shmaqda. Yaqin kunlarda "Toshkent" respublika fond birjasi bilan

Yaponiya fond birjasi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida memorandum imzolandi. Qimmatli qog‘ozlar bilan muomala ko‘lami bo‘yicha jahondagi eng ilg‘or tashkilotlardan biri bo‘lgan Yaponiya fond birjasi bilan imzolangan memorandum O‘zbekiston va Yaponiya qimmatli qog‘ozlar bozorlarini yanada rivojlantirish, ikki mamlakatning fond bozorlarini o‘rganish, o‘zaro tajriba va axborot almashishga yo‘naltirilgandir.

Memorandumga muvofiq andarrayting va listing tartibotlari, bozor holati tahlili bo‘yicha axborot almashiladi, fond bozorini rivojlantirishda aksiyadorlik kompaniyalarining ishtiroki yanada kengaytiriladi.

O‘zbekistonning barcha hududlarida 100 dan ortiq brokerlik idoralariga ega “Toshkent” respublika fond birjasi qimmatli qog‘ozlar bozorida asosiy savdo maydonidir. Birjaning Tokio, Shanxay, London, Frankfurt, Istambul va Singapur fond birjalari bilan yaqin hamkorligi yo‘lga qo‘yilgan. “Toshkent” respublika fond birjasi Yevroosiyo fond birjalari federatsiyasi hamda MDH mamlakatlari birjalari xalqaro uyushmasining a’zosidir.

Bunday uyushmalarga a’zolik va boshqa davlatlarning fond birjalari bilan faol aloqalar, bozorga kiritilayotgan va kiritilishi mumkin bo‘lgan investitsiyalarning kafolatidir.

### XULOSA

O‘zbekistonda fond bozori yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtinchalik bo‘sh turgan pul mablag‘larini investitsiyalarga yo‘naltiradi va iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga transfarmatsiyalanishiga imkoniyat yaratadi. O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlarning birlamchi va ikkilamchi bozorlari bo‘yicha barcha operatsiyalar fond birjasi elektron savdo tizimi hamda uyushgan va uyushmagan savdo tizimi orqali amalgalash oshiriluvchi infratuzilma shakllantirildi.

Biroq, qimmatli qog‘ozlarning ikkilamchi bozorini to‘la ishga tushirish, fond birjasida aksiyalar qiymatini muntazam e’lon qilib borish, aholida aksiyalar sotib olishga ishtiyoqi va intilishini oshirish, aksiyalarning haqiqiy qimmatli qog‘ozga aylantirish hamda aksiyadorlar uchun muhim daromad manbai bo‘lishi ta’minlanmaganligi, fond bozori infratuzilmasi faoliyati samarali yo‘lga qo‘yilmaganligi fond bozorini rivojlanish imkonini bermayapti. Shuni ta’kidlash lozimki, investitsion siyosatda faqatgina bozor mexanizmiga tayanib ish yuritish mumkin emas. Chunki, u iqtisodiyotning tarmoqlariga turlicha ta’sir ko’rsatadi.

### REFERENCES

1. A.V.Vahobov, Sh.X.Xajibakiev, N.G.Mo’minov Xorijiy investitsiyalar. Toshkent: “Moliya”. 346-b
2. D.G‘.G‘ozibekov , T.M. Qoraliyev Investitsiya faoliyatini tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish. Toshkent: “Iqtisod-moliya”. 2011 232-b.
3. «Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi» davlat korxonasining rasmiy sayti ma`lumotlari. <http://www.deponet.uz>